



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститутути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институтути ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova</b> Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
<b>Дурбек Мирзаахмадов</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
<b>Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov</b> Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова</b> Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
<b>Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов</b> Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
<b>Farrux Oltinboyevich Husanov</b> Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
<b>Suxrob Ramazonovich Bobokalonov</b> Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
<b>G'ayrat Soyibovich Raupov</b> Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
<b>Shohista Bobobekovna Toyirova</b> O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
<b>Камилла Бахромовна Суюнова</b> Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
<b>Latofat Tolibovna Yo'ldosheva</b> Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
<b>Матлуба Абдиманабовна Куймуратова</b> Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
<b>Kamol Sharifovich Yuldashev</b> Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
<b>Marjon Komilovna Sharifova</b> Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Умар Худайбердиев</b> Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
<b>Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов</b> Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

Latofat Tolibovna Yoʻldosheva – “Ipak yoʻli” turizm va maʼdaniy meros xalqaro universiteti doktoranti

## SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm industriyasi elementlari va subyektlarining joriy holati va imkoniyatlari, hudud aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik darajasini tahlil qilish maqsadida turli xil iqtisodiy metodlardan foydalangan holda, Samarqand viloyatining turistik salohiyati oʻrganilib, hududda turizm industriyasini yanada takomillashtirish borasida ilmiy-uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Raqamli iqtisodiyot, Engel iqtisodiy qonuni, mavsumiylik, ijtimoiy-demografik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, isteʼmolchi daromadi, turistik talab.

**Kirish:** Samarqand viloyatida raqobatbardosh turistik bozor kontentini yaratish va ehtiyoj va talablardan kelib chiqib, boshqaruvning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, nafaqat davlat turistik tashkilotlarining, balki, xususiy turistik tashkilot vakillarining ham oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Maʼlumki, turizm ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Turizm industriyasining iqtisodiy ahamiyati sohada yaratilgan daromad darajasi bilan belgilanadi. 2016-yilda xalqaro turizm dunyo iqtisodiyotiga 1,260 milliard dollar foyda keltirdi, jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10%, 2019-yilda 10,4%, 2023-yilda esa 9,2% ni tashkil etdi. [1] Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bor-yoʻgʻi 3% ni tashkil etayotgani, mazkur industriyada ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish lozimligini taqozo etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, uning hududlar boʻyicha parametrlarini tizimli ravishda prognozlashtirish va monitoring qilishni nazarda tutadi. Turizm industriyasining mahalliy aholi va turistlar uchun boʻladigan ijtimoiy ahamiyati jamiyat normalari, madaniyatlararo hamjihatlik, xavfsizlik, sogʻlik, din va til masalalarini qamrab oladi. Ushbu maqolada Samarqand viloyati turizm salohiyati tahlil va tadqiq qilinib, hudud tavsifiga koʻra, turizm rivojining ijtimoiy-iqtisodiy taʼsirini samarali boshqarish borasida maqbul tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Turizm sohasi boʻyicha yetuk olim Stephen Pagening taʼkidlashicha, koʻpgina mamlakatlar turizm sohasiga iqtisodiy oʻsishning birlamchi omili sifatida qarashadi. Bu borada mamlakatlar miqyosidagi va ular ichidagi bizneslar oʻrtasidagi raqobat masalalarini toʻgʻri talqin etish lozim. Raqobat muhiti toʻgʻridan-toʻgʻri turizm biznes tarmoqlari va ularning faoliyat jarayonlariga taʼsir etadi.[2] Massey universiteti professori Leiperning fikricha, turizm juda keng qamrovli tushuncha boʻlib, bu hodisani boshqarish maʼlum bir sabablarga koʻra oʻta murakkab hisoblanadi. Birinchidan, turizm bir tarmoqli sektor emas, turist ehtiyojlarni qondirish uchun u turli xil tashkilotlar faoliyatini oʻzida jamlaydi. Toʻgʻridan-toʻgʻri tarkibga kiruvchi tashkilotlar mavjud va yana hamkorlikdagi industriyalar (oziq-ovqat sanoati, havo yoʻllari kompaniyalari) ham oʻz faoliyatlarini yuritishadi. Ikkinchidan, turistik mahsulot sayohat davomida turistlarning oʻz sayohatidan mamnun boʻlishi uchun taklif etiladigan xizmat va tovarlar jamlanmasi hisoblanadi. Va bu oʻz ichiga turar-joy, transport, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, gid-tarjimon xizmatlari va boshqa xizmat turlarini jamlaydi.[3] Turizm sohasining yetakchi mutaxassislari S.Page va J.Connelling taʼkidlashicha, turizm sohasida motivatsiya isteʼmol jarayonining bir qismi hisoblanib, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ekologik taʼsirlarning yakdil kombinatsiyasi natijasida shakllanadi. Turistik hududga sayyohlarning nima maqsadda tashrif buyurishini aniqlash ikkita muhim asosga koʻra zarur sanaladi:

1. Rejalashtirish bosqichida: turistik manzilda salbiy taʼsirlarni nazorat ostiga olgan holda, boshqaruvning toʻgʻri shakli tanlanishi va aynan sayyohlarga kerakli va maqbul mashgʻulotlarga asoslangan turistik faoliyatni tashkil etish uchun.
2. Iqtisodiy oʻsish bosqichida: hududda turizm industriyasini rivojlantirish isteʼmolchilarning talab va istaklarini qay darajada tahlil qilish bilan bogʻliq boʻlib, aynan bozor segmenti strategiyalari asosida iqtisodiy oʻsishga erishiladi.[4]

Turizm fanlari bo'yicha olimlar Aliyeva va Norchayevning fikricha, turistik talabning ikki xil ko'rinishi mavjud: birinchisi, turistik manzilga sayohat qilishga bo'lgan talab; ikkinchisi, turizmga aloqador tovar va xizmatlarga bo'lgan talab, (misol uchun, mehmonxona nomerlari, restoran taomlari, quyosh nuriga qarshi ko'zoynaklar). Turizm bozorida talabning yuqori o'sish sur'ati xorijiy sayyohlarning tashriflari va yo'llanmalaridan tushadigan daromadning yuqori egiluvchanligi natijasi hisoblanadi. [5]Hududiy turistik talabga ikki xil omil ta'sir etadi. Birinchisi, narx omili: Samarqand turistik ta'minotchilari, misol uchun mehmonxonalar va transport sektorlari raqobatchi tashkilotlar faoliyatini yaqindan kuzatgan holda mustaqil ravishda o'z tovar va xizmatlariga narx belgilashadi. Onlayn savdo platformalarining rivojlanishi biznes vakillariga narxlarni solishtirish imkonini beradi. “Iqtisodiyot nazariyasi” yo'nalishida ilmiy maktab yaratgan yetakchi iqtisodchi olim Sh.Shodmonovning iqtisodiyot darsliklarida keltirilishicha, belgilangan narx talabga bevosita ta'sir etadi: past narx yuqori talabni ta'minlaydi, agar narx ko'tarilsa, talab miqdori tushadi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, narx va talab teskari aloqaga ega, bu—talab qonuni hisoblanadi.[6] R.Dileepning ilmiy asarlarida keltirilicha, narxning muntazam tushirilishi xaridorlarda sifat darajasining pastligi haqida tushuncha kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.[7]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Samarqand viloyati turizm salohiyatini tahlil etishda mantiqiy, iqtisodiy va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, makon va zamon va tizimli yondashuv singari tahliliy usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Samarqand viloyati aholisining soni, daromadi, ta'limi va kasbi, bu omillar viloyatning chiquvchi turizm salohiyatini ko'rsatib, global turistik oqimdagi o'rnini belgilab beradi. Samarqand viloyati Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 4 137,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan beri 2,2 %ga oshdi. Shundan: Ayollar soni-2054,6 ming kishi, erkaklar soni-2083,2 ming kishini tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 222-son qaroriga muvofiq 2022-2026-yillarda Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida yalpi hududiy mahsulot hajmini jami 1,4 baravar 2022-yildagi 58,5 trln so'mni 2026-yilda 100,1 trln so'mga yetkazish rejasi kiritildi.[8] Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil 1-yanvar holati bo'yicha, respublikada sayyohlik bilan shug'illanuvchi tashkilotlar soni 517 tani tashkil etgan, ularning eng katta ulushi Toshkent shahriga (64,2%) va keyingi o'rinda Samarqand viloyatiga (13,2%), to'g'ri keldi. 2022-yilda turistik maqsadda Samarqand viloyati hududiga kirib kelgan xorijiy davlat fuqarolari soni 1,2mln, 2023-yilda esa 2.1 mln kishini tashkil etdi. Ularning 94,9 % I MDH davlatlaridan, 5,1% i uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurishgan. [9]Ushbu yilda turistik faoliyat bilan shug'illanuvchi firma va tashkilotlar soni O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 348 tani tashkil etadi va eng katta ulushi Toshkent shahriga-52,0% va keyingi o'rinda Samarqand viloyatiga 16,4% to'g'ri keladi, ya'ni viloyatda 57 ta sayyohlik faoliyatini amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar mavjud. 2019-yilda Samarqand Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasi a'zoliciga qabul qilindi va 2023-yilgi Butunjahon turizm poytaxti maqomini qo'lga kiritdi. Hozirda Samarqand viloyati turizm sohasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, jumladan, Payariq tumanidagi Imom al Buxoriy yodgorlik majmuasi tubdan qayta qurildi, mazkur majmua uchun 21 gektar maydonda bog' va xiyobonlar va 10 ming o'ringa ega masjid barpo etildi. Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilinishi natijasida reyslar soni 3723 taga yetkazildi va yo'lovchilar soni 1,5 mln nafarga oshdi. Silkroad-samarkand.com rasmiy saytida e'lon qilingan Silk Road Samarkand: birinchi yarim yillik yakunlarini o'rganib chiqdik [10], unga ko'ra, “Silk road Samarqand” ko'p tarmoqli sayyohlik majmuasining ochilish marosimi 2022-yil 23-avgust sanasida bo'lib o'tdi. Obyektning umumiy maydoni 260 gektarni tashkil etadi, shundan 170 gektar yer yashil maydonlar, 40 gektari esa suvlik maydon hisoblanadi. Majmuada 39,5 km dan ortiq piyoda va 19,5 km velosiped yo'llari mavjud. Ushbu turizm markazida 18 ming kv maydonga ega xalqaro kongresslar o'tkaziladigan majmua qurildi. “Boqiy shahar” tarixiy majmuasida esa 17 ta milliy hunarmandchilik ustaxonalari, 3500 kishini qabul qila oladigan “Silk Road Samarkand” kongress markazi, 3 ta milliy uslubdagi choyxona, 8 ta 4-5 yulduzli mehmonxona: ular eng zamonaviy standartlarga

muvofig jihazlangan 1198 ta xonadan iborat, “Eko-qishloq”ning 14 ta villasi, Chorsu sharq bozori va Markaziy Osiyoda rekord natija hisoblangan 14 ta prezident suitlari tashkil etildi. “Silk Road Samarkand” sayyohlik markazi qurilishiga kiritilgan investitsiya miqdori 580 million dollarni tashkil etdi. Jami loyihaning qiymati 381 million dollarni tashkil etadi. 2021-2022-yillarda markazni qurish va foydalanish jarayonida barcha turdagi budjetlarga 10.872 mln so‘mlik soliq chegirmalari joriy etildi va O‘zbekiston fuqarolari uchun 1800 ta ish o‘rinlari tashkil etildi. Majmuadagi mehmonxonalarni mustaqil ravishda bron qilish jarayoni silkroad-samarkand.com rasmiy sayti, Booking.com, Expedia.com, EasyBooking.uz platformalari orqali tez va oson amalga oshadi. Viloyatda tematik xiyobonlar qurilishi ishlari olib borilmoqda va 15 ta yangi mehmonxona qurib bitkazildi. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshida HoReCa akademiyasi va “Restavratsiya va arxeologiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash innovatsion o‘quv metodik markazi” ishga tushirildi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko‘ra, Samarqand viloyatiga 2 mln 546 ming nafar mahalliy va 1 mln 106 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan va yil oxirigacha turizm xizmatlar eksportini 312 mln dollarga yetkazish rejalashtirilgan.[11]

Samarqand viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi axborot xizmati ma‘lumotlariga ko‘ra, xorijlik turistlarning viloyatda qolish davomiyligi 2-7 kunni tashkil etadi va har bir sayyohning kunlik sarf-xarajati o‘rta hisobda 85 dollardan 250 dollarni tashkil etmoqda. Mashhur nemis olimi Ernst Engelning 1857-yilda olib borgan iqtisodiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, oilalar daromadi o‘sganda, oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlar kamayganligi, boshqa uy-ro‘zg‘orga oid xarajatlar o‘zgarishsiz qolganligi, ammo boshqa xizmatlarga (ta‘lim, transport, sog‘likni saqlash, ko‘ngil ochish va dam olish) sarflanadigan xarajatlar miqdori keskin ko‘payganligi aniqlangan. Mazkur Engel iqtisodiy qonuni haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, mamlakat milliy iqtisodiyoti va GDP hajmi o‘shishi xizmatlar sohasi rivojlanishiga zamin yaratadi.[12] Tadqiqotimiz davomida Samarqand viloyati aholisining umumiy daromadlari bilan tanishdik, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha, Samarqand aholisi jon boshiga umumiy daromadi hajmi 10 993,4 ming so‘mni tashkil etdi, real o‘shish sur‘ati 106,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-mart davri uchun esa Samarqand viloyati aholi jon boshiga umumiy daromadlari 3,5 mln so‘mni tashkil etib, daromadning real o‘shish sur‘atlari 105,4% ni tashkil qiladi. Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsulot hajmi o‘shishi dinamikasini tahlil etsak, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi 12419,1 mlrd so‘mni tashkil qildi va o‘shish sur‘ati 3,6%ni tashkil etdi.[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yil ichida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning eng katta qismini 31-55 yoshli kishilar tashkil etadi: 2020-yilda 1,5 mln xorijiy turistlarning 787,5 ming nafari (52,4%), 2021-yilda 1,8 mln sayyohlarning 935,4 ming nafari (49,7%), 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan 5,2 mln turistlarning 49,6%, ya‘ni 2 593 400 nafari 31 yoshdan 55 yoshgacha kishilar ekanligi keltirilgan.[14] Xorijiy sayyohlar miqdorini yoshlar kesimida tahlil qilish turizm sohasi ekspertlariga chet ellik xaridorlar uchun maqbul turizm siyosatini: to‘g‘ri reklama va marketing strategiyasi hamda turizm infrastrukturasi yaratish imkonini beradi. Turistik tovar va xizmatlarga ta‘sir etadigan elementlar o‘z ichiga narx (Px), iste‘molchi daromadi(Y), bozordagi xaridorlar soni (N), aloqador mahsulotlarning narxi(Ps+Pc), Xaridor xohishi (T), marketing va reklama xarajatlari(M) ni o‘z ichiga oladi, Qx esa turistik mahsulot hisoblanadi:

$$Qx=f(Px, Y, N, Ps, Pc, T, M, \dots)$$

Viloyat turizmining bozordagi ulushi: Samarqand hududiga kirish va chiqishda foydalaniladigan transport xizmatlari narxlari; joylashtirish vositalari, turistik xizmatlar va oziq-ovqat narxlari. Turistik manzilda xizmat va tovarlarni ta‘minlaydigan turistik tashkilotlar soni bilan talab bir xil darajada o‘ssa, ular o‘rtasida raqobat ham kuchayadi. Raqobatbardosh bozor sharoitida turistik ta‘minotchi tashkilotlar soni o‘shib, talab darajasi bir xil qolsa, narx ham, foyda ham kamayadi. Quyidagi 1-jadvalda Samarqand viloyatida mavjud joylashtirish vositalarining xizmat va tovarlariga bo‘lgan talab darajasini tahlil etdik.

Samarqand viloyatida mavjud mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari

1-jadval

Samarqand viloyatida turistik xizmat va tovarlarni ta'minlaydigan turar-joy vositalari va ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar

Yillar	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni	Individual joylashtirish vositalari va ularda xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni	Boshqa joylashtirish vositalari (hostellar va yotoqxonalari)	Jami
2017	104	27	-	2	264
	176375	21285	-	388	395708
2018	116	28	5	2	290
	231200	23423	2015	1582	512843
2019	139	39	18	9	410
	268367	24726	3251	1546	595780
2020	144	32	17	7	376
	65074	10490	889	504	152521
2021	131	32	13	8	347
	121398	23758	1636	1629	293517
2022	165	35	26	8	434
	213470	26252	6333	1823	487600

Muallif tomonidan Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

sonida 2020-yilgacha o'sish sur'atini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda esa Samarqand viloyatida 131 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari mavjud bo'lib, 2022-yilda ularning soni 165 taga yetdi va ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar miqdori esa 2021-yildagi miqdorga nisbatan 87% ga o'sdi.

**Xulosa va takliflar:** Xulosa qilib aytganda, agar biz Samarqand viloyati turizm salohiyatini yuksaltirmoqchi bo'lsak, hududda turizm sohasi rivojining ta'siri natijasida ijtimoiy-iqtisodiy takomillashuv parametrlarini prognozlashtirish, mahalliy aholining yashash farovonligini oshirish, turizm faoliyatining rivojlanishi natijasida, hududda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy salbiy oqibatlarni o'z vaqtida aniqlash va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishimiz zarur. Hududda turistik faoliyatni kuchaytirish orqali daromadni ko'paytirish va uni to'g'ri taqsimlash, sohada yangi ish o'rinlari yaratish mumkin. Shunga ko'ra, turizm rivojining ijobiy va salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil va tadqiq qilinib, Samarqand viloyati hududining tavsifiga ko'ra, turizm rivojining ijtimoiy-madaniy ta'sirini samarali boshqarish borasida maqbul ijtimoiy mexanizmlar ishlab chiqish muhim sanaladi.

Shuning uchun, turizm industriyasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tashkil etishning samarali rivojlanishi hamda turistik mahsulotga talab va taklif o'rtasida o'zaro muvofiqlikni ta'minlash uchun hududda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: Turistik hududlar iqtisodiy infrastrukturasi yaxshilash; turizmning turli sektorlarida yangi ish o'rinlari yaratish; hududda ekoturizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish; viloyat turizm qishloqlarida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish; soliq tizimini takomillashtirish; turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirish; Samarqand turistik tashkilotlarida xodimlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish; turizm strategiyalarini tanlashda keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash va turizm sohasi rivojining salbiy oqibatlarini kamaytirish va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Statista Research Department, 2024. <https://www.statista.com>
2. Page.S. Tourism Management. 2019.6<sup>th</sup> edition.Routhledge.London
3. Leiper.N.1990. Tourism Systems: Interdisciplinary Perspective. Department of Management Systems. Business Studies Faculty.
4. J.Page., J.Connell. Tourism:A Modern Synthesis. Fifth edition. Routhledge. 2020.
5. M.Aliyeva, A.Norchayev.Turizm Menejmenti: O‘quv qo‘llanma-T.:TDIU.2007.
6. Shodmonov.Sh.Iqtisodiyot nazariyasi:Darslik.2020.
7. M.R.Dileep.2019.Tourism,Transport and Travel Management.1st edition.
8. 2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222-son qarori.28.04.2022.
9. Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasining “Samarqand viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari 2022” statistik Byulleteni
10. <https://www.silkroad-samarkand.com>
11. <https://zarnews.uz.post> >Samarqandga olti oyda qancha sayyoh keldi?
12. Kandampullu.J.,Solnet.D.2018. Service Management Principles for Hospitality and Tourism.3<sup>rd</sup> edition.
13. [www.samstat.uz](http://www.samstat.uz)
14. <https://stat.uz>

<p><b>Л.Юлдошева</b></p> <p><b>Состояние и тенденции развития туристической сферы Самаркандской области</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье туристический потенциал Самаркандской области изучается с использованием различных экономических методов с целью анализа современного состояния и возможностей элементов и субъектов туристической отрасли, уровня социально-экономического благополучия жителей Самаркандской области, а также представлены научно-методические рекомендации по дальнейшему совершенствованию туристической отрасли региона.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> цифровая экономика, экономический закон Энгеля, сезонность, социально-демографические факторы, программы социально-экономического развития, доходы потребителей, туристический спрос.</p>	<p><b>L.Yuldosheva</b></p> <p><b>Development status and trends of tourism sector of Samarkand region</b></p> <p><b>Abstract.</b> In this article, the tourism potential of the Samarkand region is studied using various economic methods in order to analyze the current state and capabilities of elements and subjects of the tourism industry, the level of socio-economic well-being of residents of the Samarkand region and also presented scientific and methodological recommendations for further improvement of the tourism industry in the region.</p> <p><b>Keywords:</b> digital economy, Engel's economic law, seasonality, socio-demographic factors, socio-economic development programs, consumer income, tourist demand.</p>
--	---

**Матлуба Абдиманабовна Куймуратова** – Наманган муҳандислик-технология институти доценти, PhD

**ЖАҲОНДА ТУРИЗМНИНГ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Аннотация:** мақолада жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари қараб чиқилган бўлиб, бунда жаҳоннинг туристик ҳудудлари бўйича халқаро туризмнинг 2000-2020 йиллар давомида ривожланиши даражаси ва 2030 йилгача бўлган башоратлари берилган. Халқаро туризм бозорининг ҳам шу даврга бўлган ҳудудлар бўйича ўзгариш тенденциялари таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** туризм, халқаро туризм, жаҳон туризми, туристик салоҳият, туризм индустрияси, туризмни ривожлантириш, халқаро туризм, туризм бозори, хизматлар, хизматлар экспорти.

**Кириш.** Ҳозирги вақтда жаҳонда туризм индустрияси бутунжаҳон хизматлар савдосида динамик даражаларда ривожланиб бораётган соҳа ҳисобланади. Агар, 1950 йилда жаҳон бўйича туристлар сони 25 млн. ва туризм индустриясининг даромади 2,1 млрд. АҚШ долларини ташкил қилган бўлса, БТТ нинг бугунги кундаги маълумотлари

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.